BUXGALTERIYA HISOBI, IQTISODIY TAHLIL VA AUDIT

Turmankulov Norpo‘lat Sa’dullayevich
TDIU-mustaqil tadqiqotchisi, Toshkent shahar Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar boshqarmasi
https://doi.org/10.5281/zenodo.14842555

Annotatsiya. *Ushbu maqolada buxgalteriya hisobi tizimi haqida tushuncha berilishi bilan bir qatorda, tizimning holati, buxgalteriya tizimining faoliyati va uni nazorat qiluvchi va baholovchi audit tizimi haqida bir qancha ma'lumotlar keltirilgan va bozor munosabatlariga o‘tish va davlat mulkini xususiylashtirish xo‘jalik yuritishning mazmuni, tuzilishi va psixologiyasida jiddiy o‘zgarishlarga olib keladi.*

Аннотация. *В данной статье представлено понятие системы бухгалтерского учета, а также информация о ее состоянии, функционировании и системе аудита, контролирующей и оценивающей бухгалтерскую деятельность. Кроме того, рассматривается переход к рыночным отношениям и приватизация государственной собственности, которые приводят к серьезным изменениям в содержании, структуре и психологии ведения хозяйственной деятельности.*

Kalit so'zlar: *Buxgalteriya hisobi, bozor iqtisodiyoti, audit, iqtisodiy tahlil.*

Ключевые слова: *бухгалтерский учет, рыночная экономика, аудит, экономический анализ.*

Ma’lumki mamlakatimizda o‘tkazilayotgan iqtisodiy-ijtimoiy islohatlar muvaffaqiyati, turli turdagi ishlab chiqarish tarmoqlarining buxgalteriyasi, mamlakatimizda olib borilayotgan iqtisodiy islohotlarda buxgalteriya hisobi va hisobotini mustaqil fan hamda amaliyotda kompaniyalar boshqaruvining muhim bo‘g‘inlaridan iborat. Iqtisodiyotimizning barcha jabhalarida bo‘lgani kabi, buxgalteriya hisobiga aloqador ulkan o‘zgarishlar va yangiliklar sodir bo‘ldi. Keyingi 10 yillar mobaynida xalqaro standartlarga to‘la-to‘kis javob beruvchi buxgalteriya hisobi tizimini yaratish borasida bir qancha islohotlar olib borilmoqda. Buxgalteriya hisobidan foydalanuvchilar doirasi ancha kengayib borayotganligi, integratsiya jarayonlari chuqurlashayotganligi, qo‘shma korxonalar barpo etilayotganligi, jahon moliya bozoriga chiqilayotganligi sarmoyalar, ishchi kuchi va valyutaning ayrim mamlakatlar o‘rtasida erkin harakatlanishi zarurligi buxgalteriya hisobi tizimini jahon standartlariga ko‘chirishni yanada qattiqroq talab qilmoqda.

Buxgalteriya tushunchasi o‘zining qadimiy tarixiga ega “Buxgalter” atamasi nemis tilidan tarjima qilganda ”buck-kitob” “halter-tutish” so‘zlarining birikmasi bo‘lib, kitob tutuvchi degan ma’noni anglatadi. Ingliz tilida so‘zlashadigan mamlakatlarda buxgalteriya hisobi “accounting” deb yuritiladi. Buxgalteriya hisobida har qanday xo‘jalik operatsiyasi bo‘yicha tegishli tarzda tuzilgan, barcha zarur ko‘rsatkichlarga ega bo‘lgan, mas’ul shaxslar tomonidan imzolangan va tasdiqlangan hujjat tuzilishi kerak. Buxgalteriya hisobi - har qanday mulkchilik shaklidagi korxona xo‘jalik faoliyatini yalpi, uzluksiz kuzatish va nazorat qilish, sodir bo‘lgan voqea-hodisalarni hisob registrlarida qayd qilish, ularga ishlov berish hamda hujjatlarga asoslangan holda moliyaviy hisobot ko‘rinishida axborotlarni foydalanuvchilarga taqdim qilish tizimidir.

Buxgalteriya hisobi-korxonalar, tashkilotlar va muassasalar faoliyatini aks ettiruvchi axborot tizimi bo‘lib, u asosiy uchta maqsadni o‘z ichiga oladi:

1. Moliyaviy hisob – korxonaning moliyaviy natijalarini aks ettiruvchi hisobotlarni tayyorlash.

2. Menejment hisobi – rahbariyat uchun zarur bo‘lgan tahliliy ma’lumotlarni taqdim etish.

3. Soliq hisobi – soliq organlari oldidagi majburiyatlarni hisoblash va to‘lashni nazorat qilish.

Buxgalteriya hisobi tamoyillari Buxgalteriya hisobi quyidagi asosiy tamoyillarga asoslanadi:

1. Uzluksizlik – tashkilot faoliyati davomiy bo‘lishi ko‘zda tutiladi.
2. Haqiqiylik – har qanday operatsiya hujjatlar bilan tasdiqlangan bo‘lishi kerak.
3. Shaffoflik – moliyaviy natijalar aniq va ishonchli bo‘lishi lozim.
4. Qiyosiylik – moliyaviy ko‘rsatkichlar vaqt o‘tishi bilan tahlil qilinishi kerak.

Buxgalteriya tenglamalari moliyaviy ma'lumotlarning to‘g'riligi va yaxlitligini ta'minlashga yordam beradi. Ular, shuningdek, hisob balansini ta'minlash muhim vazifa bo'lgan audit va moliyaviy tahlillarda muhim rol o'ynaydi. Buxgalteriya hisobi tenglamalarini o‘zlashtirish barcha buxgalterlar uchun juda muhimdir.

Buxgalteriya hisobining asosiy elementlari

1. Buxgalteriya hisobining uchta asosiy elementi mavjud:
2. Aktivlar – korxonaning moliyaviy va moddiy boyliklari.
3. Majburiyatlar – kreditorlar va boshqa tomonlar oldidagi qarzlar.
4. Kapital – korxona egalari tomonidan kiritilgan mablag‘ va foyda.

Auditning mohiyati - bozor iqtisodiyoti sharoitida uning obyektiv iqtisodiy taraqqiyot qonunlari, kategoriyalari, xalqaro hamjamiyatda tan olingan hamda ayrim olingan bir konkret mamlakatda amal qilayotgan me'yoriy hujjatlarning talablariga mos tekshiruv obyektida uning barcha faoliyatlari raqamlar yordamida ifodalangan, Korxonalar orqali,moddiy va nomoddiy ne’matlar yaratiladi, turli ishlar bajariladi,xizmatlar ko‘ rsatiladi hamda ular iste’molchilarga yetkazib beriladi.

Korxonalar sonini ko‘paytirish, ularni birlashtirish, yiriklashtirish, hamkorlikdagi faoliyat turlarini rivojlantirish mamlakat yalpi ichki mahsuloti hajmini oshirish, aholini ish bilan ta’minlash va daromadini oshirish, odamlar hayot darajasi va farovonligini yuksaltirishning muhm omillaridan biri bo‘lib hisoblanadi. Korxonalarni qayta tashkil etishni amalga oshirish sharoitida buxgalteriya hisobini yuritish va moliyaviy hisobotni shakllantirish ma’lum tartib-qoidalarga amal qilishni taqoza etadi. Bunday tartib qoidalar har bir davlatning tegishli qonunlari va qonunosti hujjatlarida, shuningdek qo‘llanilishi tan olingan halqaro standartlarda belgilangan.

Bozor iqtisodiyotiga o‘tish buxgalteriya kasbining g’oyatda mahsuliyatli va mashaqqatli yekanligini ko’rsatmokda. Buxgalteriya kasbining sharafli va mashaqqatli kasb ekanligini tarixga bir nazar tashlash orqali ham sezish mumkin. Tarixiy manbaolardan ma’lumki hisobi ishlari taxminan eramizdan 4000 yil ilgari qo’ldorlik jamiyati negizida, uning xo’jalik faoliyati talablari asosida yuzaga kelgan32. Ijtimoiy bosqichlarning o’zgarib borishi natijasida hisob obekti ham almashib turgan va dastlab foydalanilgan hisob uslubi bo’lgan inventarizatsiya, kontakorrent usuli bilan, ya’ni, xo’jalik jarayonida shaxslar orasidagi hisob-kitoblarni olib borish bilan to’uldirilgan

Xulosa

Xulosa o’rnida shuni aytib o’tish joizki, Buxgalteriya sohasini yaxshi tushunish va buxgalteriya hisobidagi tenglamalarni o'zlashtirish har qanday buxgalter yoki moliya mutaxassisi uchun juda muhimdir. Ular kompaniyaning moliyaviy holatini tushunish uchun asos yaratadi va barcha moliyaviy operatsiyalar to'g'ri hujjatlashtirilishi va hisobot qilinishini ta'minlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. http//com/iqtisodiyot.uz-buxgalteriyaning_vujudga_kelishi.
2. O'zbekiston Respublikasi buxgaletriya hisobining milliy standartlari BHMS. 21 -sonli, Tarjimonlar: prof. A.Sotvoldiev va O.Masharipov. Toshkent-2002.
3. Norbekov D. BuxgaIteriya hisobi nazariyasi. T.:-«Iqtisod-moliya», 2006.
4. Sotivoldiyev A.S. Zamonaviy buxgalteriya hisobi. T.: - 2002
5. Ivanov I.V. et al. (2008) Financial management: Cost-based approach: Manual